

ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLARI

*Abdulaminova Adolat Abdurasul qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim,*

*Logopediya yo'nalishi talabasi*  
[abdulaminovaadolat@gmail.com](mailto:abdulaminovaadolat@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Abdulla Avloniyning ta'lim va tarbiyaga oid asarlari, faoliyati haqida so'z boradi. Uning amalga oshirgan ishlari, yozgan asarlari hali hanuz o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmagan hamda hozirgi zamon pedagogi uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Avloniy, Muallim, ma'rifatchilik, pedagogik fikr, ta'lim, tarbiya

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'alarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarni aks ettirgan pedagog olimdir.

Rivojlanishning yuksak pog'onasi tomon odimlagan har bir mamlakat, avvalo, yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratadi. Sababi, farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, u jamiyat, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk ijtimoiy ishdir. U shu darajada buyuk ishki, Vatan istiqboli ham, millat taqdiri ham tarbiya bilan bog'liq.

Avloniy yaratgan asarlar hali-hanuz o'z ahamiyatini saqlagan holda, hozirgi zamon darsliklari uchun dasturul amal vazifasini o'tamoqda. Bu asarlar yuksak tarixiy pedagogik mazmunga ega bo'lgan ta'limiy, qomusiy manbalardir. Shu boisdan ham bu qo'llanmalarga bo'lgan qiziqish hamda talab so'nggi besh yillikda yanada kuchaydi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy asarlarining tub mohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, ularda o'z aksini topgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik, adolat, diyonat, insonparvarlik tushunchalariga oid fikrlarning bugungi zamon uchun ham nechog'lik katta ahamiyat kasb etishini ilg'ash mumkin.

Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so'zlari "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining maqsadini to'la ifodalaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur. Ta'lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur".

Ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy ijodida markaziy o'rin egallaydi. Ma'rifatparvar adib ilm-fanning fazilatlarini har tomonlama ochib berishga harakat qiladi. "Maktab", "maorif", "ilm", "fan" kabi tushunchalar adib merosida ezgulik va taraqqiyotning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko'tarilgan, "jaholat" va "nodonlik" esa zulmat yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Abdulla Avloniyning milliy ma'naviyatimiz va madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatparvarlikning xususiyatlarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Uning ijodi g'oyaviy kurashlar g'oyat keskinlashgan davrga to'g'ri kelishiga qaramasdan ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashishini o'ziga asosiy maqsad qilgan. Bu yo'lda Vatanga, o'z xalqiga, uning tiliga, madaniyatiga muhabbatni va uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulq hisoblagan Ayniqsa tilning mavqeini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratgan.

Shoir o'tmishda ma'rifat gulshani bo'lgan yurtimizning jaholat botqog'iga botganidan afsuslar chekib, vatanimiz tobora vayronaga aylanayotgani, ilm-ma'rifatga oshno qalblargina bunday balodan qutulishini ta'kidlaydi. Shu ma'noda shoirning "Ilmga targ'ib", "Jaholat", "Istiqboldan orzularim", "Millatga salom" she'rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan. Umuman, A.Avloniy "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" kitoblarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati va ilmsizlik oqibati to'g'risida pandnoma tarzidagi satrlami bitgan bo'lsa, "Maktab gulistoni"dagi she'r, hikoya va masallarda ijtimoiy dolzarb muammolarni ham qamrab olishi oydinlashadi.

Aytib o'tish joizki, Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish institutining tashkil etilishi ham bugungi kunda Xalq Ta'limi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishi ham serqirra ijodkor, adibimizning bugungi zamonaviy hayotimizdagi ta'siri va ahamiyati deyishimiz mumkin. Shu jumladan, Toshkent Davlat Pedagogika universitetida Abdulla Avloniy nomidagi maxsus stipendiya va ko'krak nishonining ta'sis etilishi ham yoshlar o'rtasida ilmiy salohiyatini oshirish va ijodkorlik ruhidagi talabalarga ko'plab imkoniyatlar eshigini ochadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent -2017, "O'zbekiston".
- 2.Barkamol avlod -O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: "Sharq", 1997.
- 3.Takomillashgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Boshlang'ich ta'lim"jurnali.-Toshkent,2005,5-son.
- 4.To'xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.